

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH BO'LGAN DAVLAT STANDARTLARI, TALABLAR.

Bosimova Mahliyo Dilshod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10694631>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha talablar. Shuningdek, ta'lim bilan bir qatorda tarbiyaning o'rni haqida va davlat ta'lim standarti o'quv dasturlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'quv-tarbiya, xulq-atvor, jismoniy, shaxs faoliyati, shakllantirish, ko'maklashish, milliy, bilim darajasi, interfaol metodlar.

STATE STANDARDS, REQUIREMENTS FOR THE ORGANIZATION OF PRIMARY CLASS EDUCATION PROCESS.

Abstract. In this scientific article, there are requirements for the organization of the primary school educational process. Also, information is provided about the role of education along with education and the state educational standard curriculum.

Key words: Education, behavior, physical, personal activity, formation, assistance, national, level of knowledge, interactive methods.

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ СТАНДАРТЫ, ТРЕБОВАНИЯ К ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НАЧАЛЬНОГО КЛАССА.

Аннотация. В данной научной статье представлены требования к организации образовательного процесса начальной школы. Также представлена информация о роли образования наряду с образованием и государственного образовательного стандарта.

Ключевые слова: Обучение, поведение, физическая, личностная активность, формирование, помощь, национальный, уровень знаний, интерактивные методы.

KIRISH.

Tarbiya jarayonining mohiyati inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni, uning samaradorligiga katta ahamiyat berilib, davlat ta'lim standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi ko'rinishlari tajriba sifatida amaliyotga joriy etilmoqda.

Maktablarda joriy etilgan "Tarbiya" darslarini loyihalashda, uning asosiy g'oya va maqsadlarini o'quvchilar ongiga to'liq singdirishda darslarni o'quvchilar yoshi, fiziologik holatidan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchi shaxsiga individual yondashish asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan hozirgi kunda biz pedagoglardan talab qilinayotgan vazifalar quyidagilardir:

-o'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish; bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

-dunyo dinlarining ko'p asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo'ravonlik, terrorizm va ekstremizm g'oyalari targ'ib etilmasligini tushuntirish;

-shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma'rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo'shliqlar mavjud bo'lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash kabi vazifalarimizda munosib ko'makchi qo'llanma ekanligi quvonarli holdir.

Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM.

O'quv-metodik majmua ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi; o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi; o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilganligi; umumiy o'rta ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi; mavzularning mazmunan izchilligi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligini e'tirof sazo'vordir.

O'zbek xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilganligi, savol va topshiriqlarning aniq ifodalanganligi, o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilganligi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yanada ko'maklashadi.

XULOSA.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bolgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bolsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, katta ijodiy xulosalar chiqarishlariga ham o'rgatadi. Oqituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yonaltiruvchanlik vazifasini bajaradi.

Tarbiya darslari ijodiy, noanaviy suhbat, o'yin, oilada, tabiatda, bahs, munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi:

1. Darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
2. Pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
3. Pedagogik texnologiya jarayonida didaktik qoidalar;
4. Oqituvchining mahorat texnikasi.

Pedagogik texnologiyani qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish;
2. Ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish. Oquv dasturlariga ham befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish;
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi ijodlarni o'rganib borish;
4. Oquv jarayonida o'quvchi bilan o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish;
5. Ilmiylik - yangi usul vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish;
6. Buning uchun bolalarni dastur mavzulari asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir;
7. Ilg'or tajribalarga suyanish;
8. Dars maqsadining aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyati, darsda "Xalq og'zaki ijodi" rubrikasida: maqol, ertaklardan o'rinli foydalanishi, o'yin, test savollari, korgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish;
9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi tarbiyani o'rgatishda nazariy chuqur bilimga ega bolishi zarur. Demak, tarbiya darslarini turli shakllarda tashkil etish mumkin.

REFERENCES

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006 y.
2. Ro'ziyeva D va b. 3-sinf tarbiya fani darsligi. T. «SANO-STANDART».
3. Shermuxamedova S va b. 4-sinf tarbiya fani darsligi. T. «O'zbekiston» 2020 y.
4. Abdullaeva B. S. et al. The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. - 2020. - T. 12. - №. 2. -C.2706-2714.